YOSHLARDA EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Asamatdinov Ergash Allambergenovich
Ajiniyoz nomidagi Nukus
davlat pedagogika institute
"Milliy g'oya,
ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi"
kafedrasi katta o'qituvchisi,
falsafa fanlari nomzodi
easamaddinov@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.24411081

ANNOTATSIYA: Maqolada yoshlarda ekstremizm va terrorizmga qarshi ma'naviy va mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Terrorizm va ekstremizmning har qanday ko'rinishi insoniyat taqdiriga, yoshlar ongi va tafakkuriga, davlatimiz taraqqiyoti va istiqboliga jiddiy xavf solayotgan tahdid ekani asosiy ahamiyati ko'rsatilgan. Shuningdek, Ozbekistonda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylash, barcha fuqarolarga o'z e'tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berish, dinlar va millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlash, ular o'rtasida qadimiy mushtarak an'analarni rivojlantirish kabi muhim jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, diniy e'tiqod, terrorizm, ekstremizm, fundamentalizm, mafkuraviy immunitet, an'analar, jaholat, ma'rifat, milliy g'oya, ma'naviyat, loqaydlik, befarqlik, zo'ravonlik

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ У МОЛОДЕЖИ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА ПРОТИВ ЭКСТРЕМИЗМА И ТЕРРОРИЗМА

АННОТАЦИЯ: В статье анализируются вопросы формирования у молодежи морального и идеологического иммунитета против экстремизма и терроризма. Указано, что терроризм и экстремизм в любых их проявлениях представляют серьезную угрозу судьбе человечества, сознанию и мышлению молодежи, развитию и перспективам нашего государства. Также особое внимание уделяется таким важным аспектам, как сохранение ценностей различных религий в Узбекистане, создание необходимых условий для осуществления своих убеждений всеми гражданами, дальнейшее укрепление религиозного и межнационального согласия, развитие древних общих традиций между ними.

Ключевые слова: межрелигиозная толерантность, межнациональное согласие, религиозная вера, терроризм, экстремизм, фундаментализм, идеологический иммунитет, традиции, невежество, просвещение, национальная идея, духовность, безразличие, насилие

SPECIFIC FEATURES OF DEVELOPING IDEOLOGICAL IMMUNITY AGAINST EXTREMISM AND TERRORISM IN YOUTH

ABSTRACT: The article analyzes the issues of forming moral and ideological immunity among young people against extremism and terrorism. It is shown that terrorism and extremism in all their manifestations are a serious threat to the fate of humanity, the consciousness and thinking of young people, the development and prospects of our state. At the same time, special attention is paid to such important aspects as the preservation of values belonging to different religions in Uzbekistan, the creation of necessary conditions for all citizens to practice their faith, the further strengthening of interreligious and interethnic harmony, and the development of ancient common traditions between them.

Keywords: interreligious tolerance, interethnic harmony, religious belief, terrorism, extremism, fundamentalism, ideological immunity, traditions, ignorance, enlightenment, national idea, spirituality, indifference, indifference, violence

KIRISH

Bugungi kunda terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta'kidlashicha: "Mamlakatimizning Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha milliy strategiyasi keng qamrovli, inklyuziv va tizimli yondashuvga asoslangan bo'lib, profilaktik va preventiv choralarni qo'llash hamda vaqtida amaliy javob qaytarishni o'zida mujassam etadi. Jamiyatda hamjihatlik muhitini mustahkamlash va ochiq muloqotni rivojlantirish, ta'lim-tarbiya sohasini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ish o'rinlarini yaratish va aholining ishonchli ijtimoiy himoyasini ta'minlash bu boradagi ustuvor yo'nalishlar hisoblanadi". [1]

Bugun ekstremizm va terrorizm tom ma'noda jaholat uchog'idir. Buzg'unchi g'oyalarga asoslangan terrorizm va uning har qanday ko'rinishi kishilik jamiyatining o'tmishida ham, bugunida ham butun xalqlar boshiga og'ir kulfatlar yog'dirmoqda. Har yili uning tajovuzidan yuz mingdan ortiq begunoh kishilar qurbon bo'lmoqda, jamiyat rivojlanishi, ayrim davlatlar, mintaqalar va insoniyat tsivilizatsiyasining taraqqiyotiga jiddiy tahdid solmoqda va mudhish oqibatlar keltirib chiqarmoqda. Dunyo bo'yicha qurol savdosining o'sishi va tarqalishi ham ekstremizm va terrorizming jahon miqyosida keng ko'lamda avj olishiga sabab bo'lmoqda. [2]

Tadqiqot metodologiyasi

Terrorizmning amal qilgan asosiy tamoyili aholi o'rtasida vaqti-vaqti bilan "qo'rqinch instinktini" yuzaga keltirish va shu asosda o'zining g'arazli maqsadlariga erishishdir. Shulardan kelib chiqib, quyidagilarni aytish lozim:

-terrorizmning har qanday ko'rinishi, u o'zi oldiga qanday maqsadni qo'ygan bo'lmasin va qanday ijtimoiy-siyosiy muammolar bilan bog'liq bo'lmasin, o'zining tub mohiyati bilan buzg'unchilik g'oyasiga asoslanadi. Uning oqibatida begunoh odamlar qurbon bo'ladi, xalqning mehnati bilan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliqlarni vayron qiladi;

-terrorizmning har qanday ko'rinishi insoniyat taqdiriga, uning taraqqiyoti va istiqboliga jiddiy xavf solayotgan tahdiddir. Unga qarshi kurashda hech bir inson chetda qolmasligi lozim;

-terrorizmga qarshi kurash, dunyo miqyosida tobora avj olayotgan qurol-yorog' savdosiga narkobiznesga qarshi kurash va yalpi vayron etuvchi qurollarni butunlay yo'q qilish orqali ham amalga oshirilishi lozim.

Bizning milliy g'oyamiz bunyodkorlikka etaklovchi g'oyadir. Bunyodkor g'oya loqaydlik, befarqlik, beparvolikka qarshidir. Bilimsizlik jaholat manbai bo'lib, inson ma'naviyatini kuchsizlatiradi va loqaydlikka olib keladi. Loqayd insonda bilimga intilish sust kechadi, unda atrof-muhitga e'tiborsizlik hislati kuchli bo'ladi. U hatto Vatan taraqqiyoti va uning yutuqlariga ham befarq bo'ladi. Ma'lumki loqaydlik hamda beparvolik o'z-o'zidan terrorizm va uning oqibatlari uchun zamin yaratib beradi. Loqayd va beparvo insonlar, ayniqsa, yoshlar dushmanlar to'rlariga tez ilinib qoladilar va terroristik harakatlarga qo'shilib qolishalri hech gap emas. [3]

Terrorchilik harakatlari oqibatida aynan olingan u yoki bu davlatga etkazilgan ma'naviy va moddiy talafotlar sanog'ining adog'iga etib bo'lmaydi. Biroq etkazilgan ma'naviy ziyonning aks sadosi asrlar osha o'chmasligi muqarrar, bu zahmatning izlari xalqlar xotirasida abadul-abad muhrlanib qolishi aniq. Bugun esa, bunday achchiq qismat har bir inson yoki xalqning boshiga tushishi mumkinligini butun jahon ahli teran anglamoqda.

Tarixning guvohlik berilishicha, ko'pchilik tomonidan bir tan bo'lib amalga oshirilgan tadbir, shubhasiz haq ishdir va tabiyiki, har qanday qiyinchiliklarda to'siqlarni engib o'tib, pirovard natijada, albatta, zafar bilan yakunlanadi. Shuni ishonch bilan aytishimiz mumkin, milliy an'analarimizga mutlaqo yod bo'lgan ekstremistik va terroristik g'oyalarning jamiyatimizga kirib kelishini bartaraf etuvchi qudratli vositalardan biri bu vatanparvarlik, insonparvarlik, tinchlikparvarlik, ma'rifatparvarlik, bunyodkorlik va shuningdek, milliy va diniy qadriyatlar.

Islom diniga e'tiqod qiluvchi xalqlar asrlar osha boshqa din vakillari bilan aqil yashab, olamshumul kashfiyotlar qilish va umumjahon tamadduniga benazar hissa qo'shish baxtiga muyassar bo'lmoqda. Boshqacha aytganda, dinlararo bag'rikenglik, uyg'unlik bunyodkorlikning qudratli manbai ekanligini amalda isbotlab kelmoqda.

Tahlil va natijalar

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 155-moddasiga ko'ra, "Terrorizm-xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizlikka putur etkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy siyosiy vaziyatni beqarorlantirish, aholini qo'rqitish maqsadida davlat organin, xalqaro tashkilotni, ularning mansabdor shaxslarini, jismoniy yaki yuridik shaxsni biron bir faoliyatini amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyilishga majbur qilish uchun zo'rlik, kuch ishlatish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tug'diruvchi boshqa qilmishlar yohud ularni amalga oshirish tahdidi, shuningdek terrorchilik tashkilotning mavjud bo'lishini, ishlab turishini, moliyalashtirishni ta'minlashga, terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yohud terrorchilik faoliyatiga ko'maklashayotgan yoki bunday faoliyatga ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag' vositalar va resuerslar berish yoki yig'ishga, boshqa xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan faoliyat", -deyilgan. [4]

Ammo hozirda sodir etayotgan fojiali terroristik harakatlardan keyin, ekstremizm, terrorizm deganda ko'pchilikning ko'z o'ngida islom dinini niqob qilib olgan radikal diniy guruhlar gavdalanmoqda. Muqaddas islom dinining ezgulikka yo'g'rilgan da'vatlari blan

notanish kishilarda islom fanatizmiga moyil din, degan noto'g'ri tasavvur paydo bo'layotgan bo'lsa, ayrimlar esa, ushbu vaziyatdan foydalanib, mazkur dinga e'tiqod qiluvchilarga ta'na toshlarini otmoqdalar.

Bu bilan turli dinlarga e'tiqod qiluvchilar o'rtasida adovat urug'larini sochib, nizolar chiqarishga va shu tariqa o'zlarining nopoq maqsadlariga erishishga intilmoqdalar. Xolbuki, hayotning o'zi ko'rsatganidek, zo'rovonlik bilan siyosiy hokimiyatga erishishni maqsad qilib qo'ygan ekstremist va terrorchilarning na dini, na millati va na irqi bor.

Shu o'rinda aytish kerakki, Respublikamizda qaror topgan bag'rikenglik muhitini ommaga holis ko'rsatib berish, e'tiqod erkinligi sohasida O'zbekistonda olib borilayotgan siyosatni keng targ'ib qilish, diniy mataassiblar tomonidan targ'ib qilinayotgan aqidaviy davolariga manbalar asosida ilmiy raddiyalar berish, diniy ekstremizm g'oyalarining jamiyatga tahdidi, mutaassib g'oyalar zamiridagi g'arazli geosiyosiy maqsadlar, islomni buzib talqin qilayotgan mutaassiblarning kirdikorlarini fosh etishga qaratilgan maqolalar Toshkent islom univesiteti, O'zbekiston musulmonlari idorasi hamda Islomshunoslik ilmiy tadqiqot markazining veb sahifalarida tizimli joylashtirilib boriladi.

Ekstremizm va terrorizm bugungi kunda jahon jamiyatchiligini tashvishga solayotga eng xavfli hodisalardan biri. Ekstremizm-bu hokimiyat uchun kurash, millatlararo janlallar va turli siyosiy mojarolarni keltirib chiqishda dindan siyosiy qurol sifatida foydalanishda namoyon bo'lmoqda. Fundamentalizm tushunchasi o'ziga xos xususiyatga egadir. Fundamentalizm so'zining ma'nosi "poydevorga, asosga qaytish" degan ma'noni bildiradi. U o'ta tor diniy oqim hisoblanadi. Ayniqsa, diniy-ekstremistik oqimlar ta'sirida gap kelganda "Islom fundamentalizmi" degan atama ko'proq ishlatiladi. Diniy fundamentalizm oqimi muayyan dinning boshlang'ich asoslarini tag'ib qilish bilan shug'illanadi.

Ozbekistonda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o'z e'tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o'rtasida qadimiy mushtarak an'analarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huqiq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar", -degan qoidaning mustahkamlab qo'yilgani bunday yutuqlarga siyosiy-huquqiy zamin yaratdi. [5]

Respublikamizda terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash davlatning mudofaa organlari, ichki ishlar hamda milliy xavfsizlik organlari tomonidan izchil olib borilmoqda.

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda xalqaro ma'naviy-ma'riyfiy aloqalarni mustahkamlashdan maqsad shundan iboratki, bu g'arazli kuchlar jahon miqyosida diniy e'tqoddagi turli millat vakillarini shu jumladan islom diniga e'tiqodda bo'lgan mo'min musulmonlarni din niqobi ostida milliy va umuminsoniy ma'naviy-ma'rifiy merosdan, milliy o'zlikdan mahrum qilish, ma'naviyat va ma'rifat o'rnini jaholatga boshlovchi turli xil guruhlar, tshkilot va partiyalar tuzib o'z maqsadlariga erishishga harakat qilmoqdalar. Chunki ana shunday sharoitda Markaziy Osiyoda, xusussan O'zbekistondagi ba'zi ekstremistik kuchlar din, islom dini niqobi ostida o'zlarining g'arazli istak va maqsadlarini amalga oshirishda kishilarni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan zaharlab, asosan, yoshlarni sodda, laqma kishilarni ergashtirib siyosiy hakimiyatni egallshga intiladilar. [6]

Bitta masala barchamizga ayon bo'lishi kerak. Portlashlarni ko'r-ko'rona bajargan ongi past, kaltabin, miyasi zaharlangan ijrochilar bor. Shuningdek, bularni uyushtirib o'z xalqiga qarshi jinoyatga yo'llagan tashkilotchi va rahnamolari ham borki, ularni bir-biridan ajratish, har qaysisiga alohida baho berish zarur.

XULOSA

Xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda tinchlikni asrash, turli xil fitnalardan hushyor va ogoh bo'lish, ushbu yo'nalishda davlat idoralari, jamoat tashkilotlari va keng jamoatchilikning hamkorligini yanada kuchayttirish muhim ahamiyatga ega. Zero, xalqimizning, ayniqsa, yoshlarimizni Turli mutaassib kuchlarning ta'siriga berilib qolmasliklarini ta'minlash hamda ularni Vatanga muhabbat, milliy va diniy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, eng asosiysi, bilimli qilib o'stirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Bundan ma'lum bo'ladiki, terrorchilarning ijrochi guruhi bevosita qo'poruvchilik ishlari bilan shug'ullanadilar, ularga qarshi qurol va kuch bilan kurashish kerak. Ikkinchi guruh esa, panada turib ularga g'oyaviy-amaliy yo'l-yo'riqlar beradi va aynan shular terrorizmning asosidir, ularga qarshi kurashishning eng mahbul va samarali yo'li ma'rifatdir. Boshqacha aytganda, uning ildizini ma'rifat bilan quritish, engish mumkin. Barcha davrlarda, barcha mamlakatlarda insoniyatning eng ilg'or vakillari ma'rifatga intilib, jamiyatni ogohlikka da'vat qilib kelganlar. Mamlakatimizda bu borada tizimli ishlar, ekstremistik harakatlarni sodir etmoqcho bo'lganlarga qarshi kat'iy kurash olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh. Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro konferentsiya ishtirokchilariga nutqi. 03.09.2024. https://president.uz/uz/lists/view/7522
2. Sobirov U. Yoshlar dunyoqarashida ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash masalalri. Dinshunoslikning dolzarb muammolari. Toshkent islom universiteti. 2017.B.173.
3. Sharipova D. Loqaydlik va beparvolikka qarshi kurashda ma'naviy tarbiyaning o'rni. Toshkent islom universiteti. 2017.B.185-186.
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi.155-Modda Terrorizm. (155-modda birinchi qismining dizpozitsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 25 apreldagi "O'PQ-405-sonli Qonuni tahririda-O'R QHT,2016y, 17-son,173-modda). https://www.lex.uz/acts/111453
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Yngi tahrir.Ikkinchi bo'lim. Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari.V bob. Umumiy qoidalar. 19-modda.01.05.2023. https://lex.uz/docs/-6445145
6. Saparova G. Yoshlarda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi mafkuraviy immunitetini shakllantirishning ahamiyati. Dinshunoslikning dolzarb muammolari.Toshkent islom universiteti.B.185.